



**“SABOT UL-OJIZIN” ASARIDA HAZRAT RASULULLOH
SOLLALLOHU ALAYHI VA SALLAM SIFATLARINING BAYONI**

***Salimova Ruxshona**, Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fakulteti,
o‘zbek tili yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning ummatga bo‘lgan cheksiz muhabbati, hayotdagi mo‘jizaviy fazilatlari, diniy meroslari hamda Qur‘on va hadis manbalaridagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, tarixiy rivoyatlar va klassik manbalar asosida Payg‘ambar (s.a.v.)ning shaxsiy fazilatlari, tinchlik va hidoyatdagi o‘rnakligi ilmiy tahlil qilingan. Maqola islomiy manbalar, muhaddislar rivoyatlari va zamonaviy izlanishlar asosida tayyorlangan.*

Kalit so‘zlar: *Payg‘ambarimiz (s.a.v.), ummat, hadis, Qur‘on, mo‘jiza, shafolat, fazilat, “lavlok”, tarixiy manbalar, islomiy meros.*

Kirish

Islom dinining asosiy tamoyillaridan biri Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning insoniyatga rahmat sifatida yuborilganidan dalolat beradi. Qur‘oni karimning Anbiyo surasi 107-oyatida Alloh taolo: “(Ey Muhammad), Biz Sizni butun olamlarga rahmat qilib yubordik”, - deya marhamat qiladi. Ushbu oyat Payg‘ambar (s.a.v.)ning butun insoniyatga mo‘ljallangan ilohiy risolati, fazilatli axloqlari va hidoyat manbai ekanini namoyon etadi. Taqdim etilgan manbalar u zotning hayoti, sabr-matnati va ummatga bo‘lgan chuqur muhabbatini yoritadi. Qur‘onda “rohmatan lil’olamin” atamasi Payg‘ambar (s.a.v.)ning vazifasining mohiyatini ifodalaydi. Bu rahmat nafaqat insonlarga, balki barcha mavjudotlarga tegishli ekani ulamolar tomonidan qayd qilinadi. Islom dini tinchlik, adolat, mehr-muruvvat va hidoyatni targ‘ib etishi bilan insoniyatni zulmatdan nurga boshlovchi yo‘l bo‘lib xizmat qilgan. Manbalarda Rasululloh (s.a.v.)ning ummat haqidagi qayg‘usi alohida ta’kidlanadi. U zot mushriklarning zo‘ravonliklari, mazaxlari va ozorlariga qaramay:ummatining hidoyati uchun hamisha duo qilgan, ularning og‘ir holatini ko‘rib, Allohdan rahmat so‘ragan,



zulm va qarshiliklarga sabr qilib, ummatga namuna bo'lganlar. Abu Homid G'azzoliy ta'kidlaganidek, Muhammad (s.a.v.) insonlarni dunyoviy qayg'u va azoblardan emas, balki eng og'ir xaroblik - Allohdan uzoqlashishdan ogohlantirgan. Rivoyat qilinishicha, ummatga g'amxo'rlikda barcha payg'ambarlarning peshqadami Muhammad sollallohu alayhi va sallam inson uchun eng og'ir ana shunday damda ham Jabroil alayhissalomdan so'ragan ekan: - Mendan so'ng ummatimning ahvoli qanday bo'ladi? – deb. Shunda Oллоh taolo Jabroil alayhissalomga vahiy etdi: “Habibimga xushxabar ber, ummati ichida uni uyaltirmayman. Hashr kunida u qabrdan eng avval chiqadigan insonlardan bo'ladi va Mahshargohda to'planganlarning sayyidi qilinadi. To uning ummati kirmagunicha boshqa ummatlarga jannatga kirish haromdir”. – Ana endi ko'zim quvonchga to'ldi, degan ekan Rasululloh sollallohu alayhi va sallam. Emas mavjud aningdek gavhari pok,

Dalil uldurki, kiydi toji “lavlok”.

Rivoyatlarga ko'ra: Rasululloh (s.a.v.)ning tanalaridan quyosh nurida soyasi bilinmagan, u zot qadam bosgan joylari muattar hid taratgan, sayohat paytida boshlarida oq bulut soyabon bo'lib yurgan, “Ruhul Amin” farishtasi tomonidan kelgan vahiy u zotni eng ulug' payg'ambar sifatida tasdiqlagan. Bu fazilatlar u zotning nurli xilqatdan ekanini ramziy tarzda ifodalaydi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdek poklikda gavharga o'xshagan zot na avval, na oxir vujudga kelmagan va kelmaydi ham. Buning dalili: “Agar sen bo'lmaganingda, falaklarni yaratmas edim” qudsiy hadisidir. Ma'lumki, “Sabot ul-ojizin” kitobi muallif nusxasi hozirgacha topilmagan ko'p nusxali qo'lyozmalar turiga kiradi. Nusxalar ko'p bo'lgani uchun, tabiiyki, qo'lyozma va toshbosma nusxalar matnida o'zaro farqlar uchrab turadi. Ba'zi nusxalarda yuqoridagi baytning ikkinchi misrasi: “Dalil uldurki, keldi toji “lavlok” deb yozilgan. Ilmiy-tanqidiy matn uchun tanlangan qadimiy nusxalarda bu bo'lim tushib qolgani uchun har ikki shaklni tanlash imkoni baravar kelib qoldi. Natijada bayt voqeligidagi badiiy mantiqqa e'tiborni burdik: “Jumla mavjudot ichra poklikda Muhammad alayhissalomga teng keladigani yo'q. “Lavlok”, ya'ni “Agar sen bo'lmaganingda falaklarni yaratmas



edim”, degan hadis tojining u zotga kiydirilishi buning dalilidir”. “Lavlok” – hadis jumlasidagi avvalgi soʻz. Hadis butunlikni anglatga, undan ajratib, olingan bir qism oʻsha butunlikka ishoratan bayt mazmuniga singdirib yuborilyapti. Manbalarda “Dobbatul-arz” haqidagi talqinlar keltirilgan boʻlib, Naml surasi 82-oyatga koʻra, insonlar Allohning oyatlaridan yuz oʻgiranlarida ushbu alomat namoyon boʻlishi aytiladi. Bu ogohlantirish iymon mustahkamligi va oxiratga tayyorgarlik muhimligini eslatadi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sifatlarining chegarasi yoʻq, uni aytib tugatib boʻlmaydi. Alloh taolo Qurʼoni karimda u zotning taʼrifini Oʻzi vasf qilgan boʻlsa-yu, bandalarning vasfi nima boʻlardi?! Har lahza, har nafas u zotning avlod-u asʼhobiga ham Allohning rahmati boʻlsin.

Xulosa

Paygʻambar Muhammad (s.a.v.)ning hayoti insoniyat uchun nurli oʻrnak, axloqiy komillik mezonidir. U zotning ummatga boʻlgan muhabbatlari, sabr-matonatlari, hidoyatga chorlovchi soʻzlari hamon dolzarb boʻlib, moʻminlarga axloqiy va maʼnaviy yoʻl-yoʻriq boʻlib qolmoqda. “Rohmatan lilʼolamin” maqomi amalda tinchlik, adolat, mehr, bagʻrikenglik va maʼnaviy poklikni anglatadi. Bugungi kunda ham u zotning hayotlari insoniyatni ezgulikka undovchi eng yorqin manba sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurʼoni karim. Arabcha matn va oʻzbekcha tarjima. - Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.
2. Rashid Zohid. “Sabot ul-ojizin” sharhi Ravoyihur rayhon. – Toshkent: Matbaachi, 2024.